



FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA INTONATSIYANING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Nasimova Fotima Sodiq qizi

Buxoro davlat universiteti 2-kurs magistr

Annotatsiya: Maqolada fransuz va o'zbek tillarida so'z yuritish jarayonidagi fonetik intonatsiya va urg'u haqida so'z yuritilib, ushbu ikki tildagi o'xshash va farqli jihatlarning o'ziga xos parametrlari ilmiy asosda tahlil qilingan va turli tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: intonatsiya, til, fransuz tili, o'zbek tili, morfologiya, sintaksis.

KIRISH

Mustaqil Respublikamizning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni tobora oshib, xalqaro aloqalar, savdo-sotiqlari, turizm va mamlakatlar o'rtasidagi madaniy hamda iqtisodiy aloqalar rivojlanib, mustahkamlanib borayotgan bir paytda uning kelajagini yaratuvchi yoshlarga chet tilini puxta o'rgatish va xorijliklar bilan shu tilda muloqot davomida o'ziga taalluqli masalalarni erkin muhokama qilish, umuman og'zaki yoki yozma shaklda muloqat qilishga o'rgatish hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifalarni hal qilish uchun avvalo ushbu tillardagi o'ziga xos jihatlar va bazi umumiy masalalarni hal qilish lozim.

Ushbu yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinish turibdiki, yillar davomida xorijiy til o'qitish metodikasi qiyosiy tipoligiya va pedagogika fanlarining bir bo'g'ini sifatida hisoblangan va taqbiq etilgan.

Ona tili bilan boshqa bir millatning ona tilini o'rganishda albatta ikki til bir-biriga qiyoslanadi, ularning o'ziga xos tomonlari farqlanadi. Oddiy misol va mavzuga yaqin masala sifatida fransuz hamda o'zbek tili fonetikasini qiyoslaymiz:

1. Fransuz tilida 15ta, o'zbek tilida 6ta unli bor;
2. Fransuz tilida burun unli tovushlari mavjud, o'zbek tilida esa yo'q;
3. Fransuz tilida so'z oxiridagi undoshlar jarangsizlanmaydi, o'zbek tilida esa ular jarangsizlashadi: maktab (b-p); lemonade [limonad];
4. Fransuz tilida cho'ziq va qisqa unlilar bor, o'zbek tilida esa yo'q;
5. Ochiq unlilar fransuz tilida o'zbek tilidagidan ko'p;
6. Fransuz tilida 8ta, o'zbek tilida 2ta lablangan unli bor;

ADABIYOTLAR SHARHI

XXI-asr rivojlangan axborot texnologiya asrida biror chet tilini (fransuz, ingliz, nemis) bilish hech kimga zarar keltirmasa kerak. Shunday ekan boshqa fanlarning o'z o'qitish metodlari bo'lganidek, chet tilini o'qitishning ham o'ziga xos metodik uslublari, metodikasi mavjud. Ammo XVIII-asrgacha





ayrim olimlar chet tilini o'qitish metodikasini qiyosiy tilshunoslikning amaliy tadbiqi deb qarasalar, boshqalar ularni pedagogika fani deb hisoblar edilar.

Yuqoridagi holatdan ham ko'rinish turibdiki, bu ikki tilda o'ziga xos fonetik xarakteristika mavjud. Quyida intonatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarini til oilalari kesimida tahlil qilamiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Intonatsiya-nutq jarayonida ovozning musiqiy va maromiy jihatlari, tovushlarning navbatma-navbat ko'tarilishi va tushishi hamda nutqning sintaktik ma'nolari(darak, so'roq, buyruq va undov)ni ifodalaydi.

O'zbek tilida Intonatsiya turlari-intonatsiyaning yuqorida sanab ko`rsatilgan prosodik elementlar ishtirokida shakllangan maxsus ko`rinishlari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Tugallangan intonatsiya. Har bir gap nisbiy tugal intonatsiyaga ega bo`ladi.
2. Tugallanmagan intonatsiya. Ayrim so`z yoki so`z birikmasining gap emasligini bildiradigan intonatsiya. Masalan: A'lochi talaba (aniqlovchi aniqlanmish qolipidagi birikma. Bunda intonatsion tugallik yo`q). Talaba-a'lochi: ega+kesim=gap. (Bunda gapga xos intonatsion tugallik bor).
3. Darak intonatsiyasi-tinch ohang.
4. So`roq intonatsiyasi-ko`tariluvchi ohang.
5. Undov intonatsiyasi-fikrni kuchli his bilan ifodalashda qo`llanadigan ohang. Bu ohang emotsiyal gaplarda qo`llanadi.
6. Chaqiruv yoki undash intonatsiyasi-undalmalarga, vokativ gaplarga, buyruq gaplarga xos intonatsiya.
7. Sanash intonatsiyasi-teng grammatik munosabatda bo`lgan so`zlarni uyushiq bo`laklarni bog`lovchi fonetik vosita.
8. Emfaza-nutqning emotsiyal jihatdan ifodalanish darajasining kuchayishi.

Fransuz tilida intonatsiya masalasi urg'u va ritmik guruhlar bilan chambarchas bog'liq. Umumiy ma'noda aytganda, fransuzcha jumlaning ohangdorligi ritmik guruh yoki sintagma ichida ovoz ohangingin boshidan oxirgi bo'g'inigacha bosqichma- bosqich ko'tarilishi bilan tavsiflanadi.

Fransuz tildagi gaplarda oldingi ritmik guruhning yuqori notasidan keyingi ritmik guruh noturg'un bo'g'inining pastki notasiga o'tish jarayoni silliq kechadi. Keyingi ritmik guruh yoki sintagmaning urilgan bo'g'ini, qoida tariqasida, avvalgi ritmik guruh yoki sintagmaning ta'kidlangan bo'g'iniga nisbatan yuqori notada talaffuz qilinadi. Fransuz tilida tasdiq gap intonatsiyasi oxirgi ritmik guruhning so'nggi bo'g'inidagi ovozning kuchli pasayishi bilan ifodalanadi.

O'zbek tilida esa so`roq gapda eganing talaffuzidagi tezlik darak gapdagi eganikidan bir oz ortiq bo`ladi, kesim talaffuzidagi tezlik esa nisbatan kamayadi. Buyruq gaplarda temp gap oxiriga tomon tezlashib boradi, ammo oxirgi so`z talaffuzidagi tezlik keskin pasayadi.

So`roq gapning tasdiq gap intonatsiyasidan farqi shundan iboratki, u ohang jihatidan yuqori va oxirida kuchli ko'tarilish bilan talaffuz qilinadi. Bunda so`roq gapda savol grammatik shakllar yoki so`roq so`zlari bilan emas, balki faqat intonatsiya bilan ifodalanganida, so`roq gapni tasdiq gapdan ajratib turadi.





NATIJALAR

Avvalo asosiy bir jihat aniqlandiki, u ham bo'lsa intonatsiyaning nutq jarayonida tutgan o'rni: Ikki tilda ham umumiy tasnifandi

- a) gapning intonatsion tugalligini ifodalovchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi;
- b) gapning ifoda maqsadiga va emotsiyallikga ko`ra turlarini farqlashda ishtiroy etadi;
- c) sintaktik aloqalarini ifodalovchi muhim fonetik vosita sanaladi.

Umumuy qilib aytganda fransuz va o'zbek tillarida gapning umumiyligi matndagi aytish intonatsiyasi (talaffuzi) va so'zlarning alohida urg'u bilan aytish tarzi, harflar talaffuzi birbiridan malum darajada farqlanadi. Masalan agar so'roq gapda savol inversiya bilan ifodalangan bo'lsa, ohang kuchayishi ham tugaydi. Ammo inversiya bilan gapning markazida ya'nii predikat (kesim)da ohang toni o'sishi mumkin va gap ohangining pasayishi bilan gapning oxiri talaffuz qilinishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, intonatsiyaning bunday pasayishi hech qachon tasdiq gapdagi kabi kuchli bo'lmaydi. Umuman olganda, savol so'roq so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa, ovoz ohangining oshishi so'roq so'zda (yoki bog'liq bo'lgan so'roq so'zi bilan ismda) kuchayadi va gapning oxirida esa kamayadi.

Undov gapda intonnatsiya g'azab, nafrat, hayrat, qo'rquv va hokazo kabi kuchli his-tuyg'ularni yoki ajablanish, hayratlanish va quvonch, baxt kabilarni ifodalish uchun ishlataladi.

Shuningdek, fransuz tilida intonatsiya gap ichida ko'tarilib, gap tugamaganligini bildiradi. Ovoz ritmik guruh oxirida, jumla ichida ko'tariladi. Masalan: Pas d'enfant, pas de voisin, pas d'électricité, pas une route.

Intonatsiya ikki jumla yoki qo'shma gaplar segmentlari o'rtasida muvofiqlashtirish yoki bo'y sunish munosabatlarini o'rnatishga ham imkon beradi.

XULOSA VA MUHOKAMALAR

Yuqoridagi tahlil va mulohazalardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fransuz va o'zbek tillari fonetikasida intonnatsiyaning tutgan o'mni va roli beqiyosdir. Nutqda ohangdorlikni, musiqiylikni oshirishda, tinglovchilarga sifatli tarzda axborotni yetkazishda va uni qabul qilishda intonnatsiyaning dolzarbliyi yanada kuchayib boradi. Zero, diyarli barcha xorijiy tillar jumladan fransuz tilida sof talaffuz va intonnatsiya tufayli ushbu tilning nufuzi va o'rganilish qamrovi kun sayin ortib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ubaydullayev M, Andreychikova A.P, Yusupova N.A "Fransuz tili fonetikasi" O'zbekiston 2010-y.5-b
2. Bled E, Bled O. "Orthographe, Grammaire", Paris HACHETTE, 2009 25-b
3. Попова И.Н. и др. Французский язык: учебник для I курса институтов и факультетов иностранных языков/ И.Н. Попова, Ж.А. Казакова, Г.М. Ковальчук.- 21-с изд., исправленное М.: ООО «Издательство «Нестор Академик», 2010.-576 с.
4. www.ru.m.wikipedia.org
5. apprendre.tv5monde.com
6. intonationfrancaise.wordpress.com
7. www.google.uz
8. www.ziyonet.uz
9. yandex.ru

